



**KICHIK VA O`RTA BIZNESDA BUXGALTERIYA AXBOROT  
TIZIMLARINING MOSLASHUVCHANLIGI: RAQAMLI O`ZGARISHLAR  
SHAROITDA AMALIY TAHLIL**

**Ishmamatova Sevinch Raximjon qizi**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti talabasi

**Kurbonaliyev Abduhamid Shuxrat o`g`li**

Ilmiy rahbar:

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti xodimi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15488606>

**Annotatsiya:** Mazkur tadqiqotda raqamli iqtisodiyotning jadallashuvi sharoitida kichik va o`rta biznes subyektlarining axborot tizimlariga moslashuvi tahlil qilinadi. Bugungi kunda kichik va o`rta biznes egalarning faoliyatini muvaffaqiyatli tarzda olib borishida zamonaviy texnika-texnologiyalar muhim rol o`ynamoqda. Ushbu tadqiqotda buxgalteriya hisobini yuritishda foydalaniladigan avtomatlashtirilgan axborot tizimlarining moslashuvchanlik darajasi hamda afzalliklari o`rganiladi. Shuningdek, ushbu tizimlarning amaliyotda qo`llash jarayonidagi qulayliklari, kamchiliklari va amaliy foydasi tahlil qilinadi.

**Kalit so`zlar:** buxgalteriya axborot tizimi, kichik va o`rta biznes (KOB), raqamli transformatsiya, avtomatlashtirish, moslashuvchanlik

**Annotation:** Today, modern technologies play a crucial role in ensuring the successful operation of small and medium-sized business owners. This study explores the flexibility and advantages of automated information systems used in accounting. Additionally, it analyzes the practical benefits, conveniences, and drawbacks of applying these systems in real-world practice.

**Keywords:** accounting information system, small and medium-sized businesses, digital transformation, automation, flexibility.

**Аннотация:** В данном исследовании анализируется адаптация информационных систем субъектов малого и среднего бизнеса в условиях ускоренного развития цифровой экономики. На сегодняшний день современные технологии и технические средства играют важную роль в успешной деятельности владельцев малого и среднего бизнеса. В исследовании рассматривается уровень адаптивности и преимущества автоматизированных информационных систем, используемых в бухгалтерском учёте. Также анализируются удобства, недостатки и практическая польза применения данных систем в реальной деятельности.





**Ключевые слова:** бухгалтерская информационная система, малый и средний бизнес (МСБ), цифровая трансформация, автоматизация, адаптивность.

Bugungi kunda tezkor, aniq va samarali moliyaviy boshqaruv kichik va o'рта biznes subyektlarida muhim omil hisoblanadi. Ko'plab kichik va o'рта korxonalar qo'lda yuritiladigan yoki oddiy hisob-kitob usulidagi buxgalteriyadan ko'ra ancha mukammal va nisbatan nuqsonsiz hisoblaydigan avtomatlashtirilgan tizimga o'tishni afzal bilishmoqda. Bundan kelib chiqadiki, buxgalteriya axborot tizimlari hisob yuritish bilangina cheklanib qolmay, muhim strategik qarorlar qabul qilishda ham muhim rol o'ynaydigan omil hisoblanadi. Biroq, raqamli transformatsiyaga o'tish jarayonida ham moliyaviy cheklovlar, xodimlar malakasida kamchiliklar, murakkab interfeys tuzilmalari kabi muommolar vujudga kelmoqda.


**Tadqiqot maqsadi:** Tadqiqotning asosiy maqsadi — kichik va o'рта biznes-korxonalarining buxgalteriya axborot tizimlaridan foydalanish jarayonidagi afzalliklari va foydali jihatlari, moslashuvchanlik darajasini tahlil qilish hamda ularning amaliyotda muvaffaqiyatli qo'llashni joriy etish kabi masalalarni ko'rib chiqishdir.

#### **Adabiyotlar tahlili va metodologiya:**

O'zbekistonning Toshkent, Samarqand, Farg'ona va Buxoro viloyatlarida faoliyat yuritayotgan 30 dan ortiq kichik va o'рта biznes subyektlaridan intervyu va so'rovnomalar o'tkazildi va qanday dasturlardan foydalanayotganligi, ularga to'sqinlik qilayotgan, qoniqtirmayotgan muommolar tahlili Excel va SPSS dasturlari orqali o'rganilganda natijalar shuni ko'rsatdiki, ko'pchilik kichik korxonalar oddiy va bepul bo'lgan dastur – Exceldan hozir ham foydalanishmoqda. Biroq, 1C, SAP Business One va MyBooks kabi eng ommabop avtomatlashtirilgan tizimlardan foydalanuvchi korxonalarda ish samaradorligi o'sganini va ancha qulaylik yaratilganligi aniqlandi. Ya'ni, so'rovnomada qatnashgan korxonalarining 70 foizi elektron hisob-kitob tizimlaridan foydalansa-da, faqat 30 foizida integratsiyalashgan ERP tizimlari mavjud. Shunday bo'lsa-da, dasturlar narxi nisbatan qimmatligi va ko'p hollarda ulardan foydalanish ko'nikmalari yetishmasligi bois muommolar ham vujudga kelmoqda. So'rovnomadagi tahlillarga ko'ra eng jiddiy muommolar sifatida respondentlar yuqori narxlar (65%), malakali IT xodimlar yetishmovchiligi (48%) va texnologiyalarning tez eskirishi (34%)ni ko'rsatmoqda.



Kichik va o'rta biznesda buxgalteriya axborot tizimlari bo'yicha statistik ma'lumotlar  
Malakali IT xodimlar yetishmasligi (48%)



1-rasm. Kichik va o'rta biznesda buxgalteriya axborot tizimlaridan foydalanish bo'yicha asosiy statistik ko'rsatkichlar

### Munozara

Metodologik tahlilga ko'ra kichik va o'rta biznes subyektlari uchun raqamli transformatsiya jarayoni oson kechmayapti. Ko'plab KOBlar ushbu jarayonda davlat tomonidan ko'rsatiladigan qo'llab-quvvatlashga muhtoj. Bu yo'lda davlat startap loyihalar uchun grantlar va imtiyozlar subsidiyalar ajratishi, texnik ko'mak markazini tashkil etishi joiz. Shuningdek, korxonaga zamonaviy texnologiyalardan foydalana oladigan va ularni real hayotda qo'llay oladigan kadrlar zaxirasini shakllantirish zarur. Bu esa kollej, litsey va universitet dargohlarida zamonaviy o'quv dasturlari asosida yoshlarni o'qitish, o'z sohasiga oid eng so'nggi texnik bilimlarni o'rgatish kabi zaruriy choralarni talab qiladi.

### Xulosa

Yuqoridagi tahlillardan xulosa qilib aytadigan bo'lsak, moslashuvchan buxgalteriya tizimlari kichik va o'rta biznes subyektlari uchun raqamli transformatsiya sharoitida samarali ish faoliyatini ta'minlashga yordam beradi. Shuningdek, BAT (buxgalteriya axborot tizimlari) foydalanuvchilari dasturni qulay narxda sotib olishi, tizim tushunarli interfeysda bo'lishi, tizimdagi kamchiliklar to'g'rilanishi zarur.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Davlat statistika qo'mitasi (2024). Kichik biznes subyektlari faoliyati to'g'risida hisobot.
2. Rakhmatova, G. (2023). Kichik biznes va raqamli hisobot tizimlarining uyg'unligi. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti.
3. Lee, M., & Kim, H. (2022). Flexibility of Accounting Systems in SME Environments. *International Journal of Digital Business*, 17(3), 210–225.
4. Tursunov, A. (2021). Raqamli transformatsiya sharoitida O'zbekiston kichik biznesi uchun IT yechimlar. *Buxgalteriya va audit*, 2(1), 44–50.



5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risidagi farmoni, 2020-yil

